

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

1.2023

**научно-теоретический, методический журнал
Издаётся с 2001 года**

Urganch – 2023

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent **YO‘LDOSHEV Ro‘zimboy**

TAHRIR HAY’ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),
ABDULLAYEV O‘tkir, tarix fanlari doktori (UrDU),
ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),
DO‘SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),
JUMANAZAROV Doniyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),
JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, mas’ul kotib, UrDU),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OTAMURODOV Sa’dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
PRIMOV Azamat, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
RO‘ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O‘zMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O‘zMU),
SALAYEV San’atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SALAYEVA Muxabbat Soburovna, pedagogika fanlari doktori (UrDU),
SATIPOV G‘oipnazar, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (bosh muharrir o‘rribosari, (UrDU),
YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O‘zDJTU),
O‘ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori (UrDU),
O‘ROZBOYEV G‘ayrat, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
G‘AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI•2023 1(187)**

MUASSIS: Urganch davlat universiteti•Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro‘yxatdan o‘tgan•GUVOHNOMA № 1131.

jihatdan farqlanadi, biroq barcha tariqatlarda bosh masala bo‘lgan qalb, uni poklash va Haqning nazargohiga aylantirish masalasi bilan umumiylilik kasb etadi.

Mirbobo Naqshbandiyning mazkur asari tom ma’noda tariqat yo‘lining soliklari uchun dasturulamal va uslubiy ko‘rsatma hamda nazariy asos sifatida yozilgan o‘ziga xos asar bo‘lib, u o‘z tadqiqotsilasini kutib turibdi.

Xoliqov Lazizjon Maxmud o‘g‘li (Buxoro davlat universiteti izlanuvchisi)
MILLATLARARO MUNOSABATLARDA HAMJIHATLIK MUHITINI TA’MINLASH-
MILLATGA QARSHI QARATILGAN TAHDIDLARDAN HIMOYALANISH ASOSI

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy-ma’naviy xavfsizlikni ta’minalmasdan turib, millatga qarshi qaratilgan tahdidlardan himoyalanib bo‘lmasligi hamda milliy totuvlik va hamjihatlikka zid destruktiv g‘oyalarga qarshi kurash tinchlik va osoyishtalikni ta’minalash asosi ekanligi kabi masalalar yoritib berilgan.

Аннотация. В данной статье освещены такие вопросы, как обеспечение национальной духовной безопасности, незащищенность от угроз, направленных против нации, а также то, что борьба с деструктивными идеями, противоречащими национальному согласию и гармонии, является основой обеспечения мира и спокойствия.

Annotation. This article highlights such issues as ensuring national spiritual security, insecurity from threats directed against the nation, as well as the fact that the fight against destructive ideas that contradict national accord and consent is the basis for ensuring peace and tranquility.

Kalit so‘zlar: millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik, tinchlik, xafsizlik, tahdid, diniy ekstremizm, terrorizm,

Ключевые слова: межнациональное согласие, толерантность, мир, безопасность, угроза, религиозный экстремизм, терроризм.

Key words: interethnic harmony, tolerance, peace, security, threat, religious extremism, terrorism.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O‘zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning bar-chasi hayotda o‘zining to‘liq ifodasini topdi.¹

Yoshlar tafakkuri sofligini saqlash, ularning kayfiyatlari, orzu-umidlari, intilishlarining mazmun-mohiyatini o‘rganish, ulardan tegishli xulosalar chiqarish o‘ta dolzarb vazifadir. Diniy ekstremizm va terrorizm ildiz otib borayotgan bugungi kunda jamiyatimizda yoshlar tarbiyasiga ahamiyat qaratish eng dolzarb vazifadir. Bugungi kunda BMTning xavfsizlik va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus bo‘linmalar faoliyati terrorizmga qarshi qaratilgan asosiy xalqaro uyushmalar qatorida yetakchi o‘rin egallaydi.²

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayd etganlaridek: “Barchamizga ayonki, jahonda keskin iqtisodiy raqobat, axborot xurujlari, terroristik tahdidlar tobora kuchayib bormoqda. Dunyoning turli joylarida, ayniqsa, Yaqin Sharq mintaqasida qonli to‘qnashuv va nizolar davom etmoqda. Ming afsuski, bunday notinch keskinlik o‘choqlari kamayish o‘rniga ko‘payib bormoqda. Ana shunday tahlikali vaziyatni hisobga olgan holda, biz yurtimizda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, turli xavf-xattarlarga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatimizni har tomonlama kuchaytirishimiz shart. Bu – zamon taliabi.

Avvalo, shu yo‘nalishda shakllangan tizim samaradorligini yanada oshirishimiz, ayniqsa, diniy masalalar bilan bevosita shug‘ullanadigan hokim o‘rnbosarlari, mutasaddi tashkilotlar mas‘uliyatini yanada kuchaytirishimiz zarur. Xususan, mahalla raislari, profilaktika inspektorlari, imom-xatiblar, diniy-axloqiy masalalar bo‘yicha maslahatchilar, yoshlar, xotin-qizlar tashkilotlari faollari – barcha-barchamiz birgalikda ish olib borishimiz lozim”.³

¹ Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-tom, T., “O‘zbekiston”, 2019, 295-bet.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma’ruzasi. “Xalq so‘zi”, 2017, 20-sentabr.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi”, 23-

Terrorizm – jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish, aholining keng qatlamlarida vahima va qo‘rquv uyg‘otishga qaratilgan siyosiy kurashning o‘ziga xos usuli. U yashirin ruhdagi tashkilotlar tomonidan beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash oqibatida qo‘llaniladi. Terrorchi uyushmlar ommaviy bo‘la olmaganliklari uchun ham ko‘p hollarda aholining keng qatlamlarida nomidan harakat qilish taassurotini uyg‘otish maqsadida diniy shiorlardan niqob sifatida foydalanadilar.

Xususan, O‘zbekiston milliy ensklopediyasida terrorizmga quyidagicha ta’rif beriladi. Terrorizm (lot, terror–qo‘rinch, dahshat) – siyosiy raqiblarni, muxoliflarni yo‘qotish yoki qo‘rqtish, aholi o‘rtasida vahima va tartibsizliklar keltirib chiqarish maqsadidagi zo‘ravonlik harakatlari (ta’qib qilish, buzish, garrovgalish, qotillik, portlatish va b.).¹

Terrorizmning eng asosiy xususiyatlaridan biri, bunday harakat tarafdarlarining “zo‘rlik davlatni parokandalikka olib keladi” degan g‘oyaga asoslanib harakat qilishlarida yaqqol ko‘rinadi. Terrorizmning yana bir xususiyati hech qanday urush bo‘lmayotgan tinchlik hukmronlik qilayotgan jamiyatda demokratik institutlar faoliyat ko‘rsatayotgan bir sharoitda muqobil usullarni inlor etgan holda siyosiy masalalarni zo‘rlik bilan hal qilishga intilishda ko‘rinadi. Bunday siyosiy masalalar o‘z navbatida hududiy, etnik, diniy yoki boshqa shakl-u shamoil kasb etishi mumkin.

Hozirgi xalqaro terrorchilik markazlari mablag‘lari evaziga mavjud konstitutsion tuzumga qarshi qo‘poruvchilik siyosiy arboblar hayotiga suiqasd harakatlarini olib boruvchi tashkilotlarga uyushgan holda faoliyat ko‘satmoqda. Xalqaro statistik ma’lumotlarga ko‘ra, hozirda dunyo miqyosida 600 dan ortiq terroristik tashkilotlar mavjud. Ular deyarli dunyoning barcha mamlakatlarida o‘zining manfur qiyofasini namoyish qilmoqda.

Umuman olganda, hozirgi kunda islom ekstremizmi xalqaro terrorizmning asosiy ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Shunga asosan, diniy ekstremizmga qarshi kurash hozirgi vaqda dolzarb vazifaga aylanadi.

Rossiyadagi Atom energetikasi rivojlanishi muammolari institutining ilmiy xodimi L.Bolshovning fikricha, terroristlar yadroviy materiallardan o‘z maqsadlari yo‘lida quyidagi uch variantda foydalanishi mumkin:

♦yadroviy qurilmalarni portlatish;

♦atom energetikasi obyektlarida, atom elektrostansiyalarida, atom qurilmalari elementlarini yoki atom chiqindilarini qayta ishlovchi korxonalarda qo‘poruvchilik harakatlarini amalga oshirish;

♦oddiy portlovchi moddalar tarkibiga radiotaktiv izotoplarni kiritib portlatish yoki bunday izotoplarni changitish, purkash va boshqa yo‘llar bilan havoni zaharlash orqali amalga oshiradi.²

Qayd etish lozimki, radikallashuv, terrorizm g‘oyalaring tarqalishi jamiyatning tinchligi va ososishtaligiga tahdid soluvchi asosiy xavf-xatar va muammolardan biri hisoblanadi. Radikalizm terrorizmga olib boruvchi so‘nggi bosqich. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasidagi radikallashuv jarayoni katta tashvish uyg‘otmoqda. Ekstremistik faoliyat va zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilayotgani, bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avlod bo‘lib, ular 2 milliard kishini tashkil etishini e’tiborga olsak, masalaning naqadar jiddiy ekanini tushunish qiyin emas. Hozirgi kunda ekstremizm va terrorizm xalqaro hamjamiatga ham, Marкази Osiyo davlatlari, jumladan, O‘zbekistonga ham tahdid solishda davom etmoqda.³

Milliy ma’naviy xavfsizlikni ta’minlamasdan turib, millatga qarshi qaratilgan tahdidlardan himoyalanib bo‘lmaydi. Millatga qarshi tahdidlarga qarshi tizimni tashkil qilishning barcha turlari milliy ma’naviy xavfsizlikning qanday ta’minlanganligiga bog‘liq bo‘lib qolaveradi. Buni biz real amaliyotda sodir bo‘layotganligining ham guvohi bo‘lib turibmiz. Chunonchi, bugun dunyo miqyosida Yer kurrasiga egalik qilishga da’vogarlik qilayotganlarning qirg‘inbarot moddiy qurollardan foydalanishdan ko‘ra, insonlar ongi, dunyoqarashi va qalbini egallashga bo‘lgan intilishlari ustuvor darajaga ko‘tarilib bormoqda.⁴

Tahlillarga ko‘ra, terrorizm bilan bog‘liq harakatlarni oqlash, qolaversa, bunday harakatlarni sodir etishga undash og‘zaki va yozma ravishda amalga oshirilishi, audio va videomateriallar, fotosuratlar,

dekabr, 2017.

¹O‘zbekiston milliy ensklopediyasi. 8-sod. Solnoma–To‘yepa.“O‘zbekiston milliy ensklopediyasi” davlat ilmiy nash-riyoti, T., 2004, 404-bet.

²V.Pryixin. Лишних людей на земле нет. Журнал “Международная жизнь”, Москва, 2002, № 1, с. 75.

³Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2021, 401-bet.

⁴Otamurodov S. Globallashuv:millatni asrash mas’uliyati. T., ”O‘zbekiston”, 2018, 251-bet.

chizmalar, belgilar yordamida tarqatilishi mumkin. Bugungi kunda esa ming afsuski internet tarmog‘i eng ko‘p ma’lumot tarqatilayotgan vositalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu borada so‘z ketganda terrorizmni ommaviy ravishda oqlashga, targ‘ib qilishga yoki unga undashga qaratilgan materiallarni tarqatishda ishtirok etadigan shaxslarning roli ham bir xil emasligiga e’tibor qaratish lozim. Masalan, terrorizmga da’vat etuvchi xabarning muallifi va tarqatuvchisi boshqa-boshqa shaxslar bo‘lishi mumkin. Bunda terrorizmni targ‘ib qiluvchi matnni yaratish alohida holat, uni tarqatish boshqa holat sifatida e’tiborga olinishi kerak. Mazkur jinoyat ommaviy ravishda sodir etilganini esa kamida ikki kishidan iborat tinglovchi bo‘lgani tasdiqlaydi. Xulosa qilib aytganda, terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarni differensiatsiya qilish ushbu turdag'i jinoiy qilmishlarga qarshi samarali kurashish, xususan, bunday xatarlarning oldini olishga xizmat qiladi.¹

Darhaqiqat, shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan mamlakatimizda aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minalash har birimizning muqaddas burchimizdir. Zero, hamkorlik va do’stlik bor joyda tinchlik va taraqqiyot bo‘ladi. Bugun biz Yangi O‘zbekistonni ko‘p millatli davlat sifatida tili, dini, e’tiqodidan qat’iy nazar, barcha fuqarolarga teng sharoit va yangi imkoniyatlar eshigini ochgan muqaddas go‘sha deb bemalol ayta olamiz.

Yangi O‘zbekistonda tinchlik va hamjihatlik muhitining nihoyatda qadrli ekanligini bir qator xorijlik mutaxassis va olimlar ham e’tirof etib kelishmoqda. Xususan, 2022-yil 17-may kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Deklaratsiyalar muloqoti” xalqaro forumida ishtirot etgan amerikalik jurnalist Grek Mitchelning ta’kidlashicha, O‘zbekistondagi bugungi tinchlik va hamjihatlik muhiti g‘oyat qadrli va biz bu jaryonda mamlakatingizda amalga oshirilayotgan qizg‘in islohotlarni olqishlaymiz. O‘zbekiston ko‘pmillatli mamlakat sifatida o‘z hududida diniy bag‘rikenglik va millatlarototuvlikni ta’minalay olayotgan davlat sifatida ham tanilgan. Bu haqda gap ketganda, yurtingizda vijdon erkinligi ta’minalanganini, turli din vakillariga o‘z e’tiqodini emin-erkin amalga oshirishi uchun sharoit yaratilganini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. Diniy ta’lim olish, eng muhimi, din, avvalo, tinchlik va ezgu maqsadlar targ‘ibotchisi bo‘lishi kerakligi yo‘lidagi O‘zbekiston sa’y-harakatlari ham tahsinga loyiq.

Bugun dunyo tahlikali bo‘lib qoldi. Turli diniy nizolar, qurolli to‘qnashuvlar, millatlararo qarama-qarshiliklarga guvoh bo‘lib turibmiz. Ana shunday sharoitda biz, barchamiz birlashishimiz, dunyon, o‘z erkin hayotimizni turli xavf-xatarlardan hamjihatlik yo‘lidagi harakatlarimiz bilan qutqarishimiz har qachongidan-da dolzarb.

Muxtasar qilib aytganda, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minalashning bebafo ahamiyati xususida ko‘plab hamyurtlarimiz o‘zlarining yurak so‘zlarini izhor qilishmoqda. Ular orasida millatdoshlarimiz bilan birga, yurtimizda istiqomat qilayotgan boshqa millat vakillari, diplomatik korpus vakillari ham borligi e’tiborga molik. E’tiborli jihat shundaki, dunyoning yirik, ko‘pmillatli davlatlari rahbarlari, taniqli siyosat va jamoat arboblari, diplomatlar O‘zbekistondagi xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minalash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohalarida erishilgan yuksak natijalariga o‘zlarining xolis bahosini berishmoqda va mamlakatimizning tajribasidan foydalanishni tavsiya qilishmoqda.

¹ Jamshid Ibrohimov. IIV akademiyasi mustaqil izlanuvchisi. Terrorizm haqida qasddan yolg‘on xabar buning uchun javobgarlik aniqmi? “Huquq va burch”, 1-son, 2019.

MUNDARIJA

Urazboev G‘ayrat, Babajanova Oygul, Azamatova Dilmira. Maxsus moslangan manbali Garri Dim tenglamasini integrallash.....	3
Matyoqubov Ollabergan, Matkarimov Sanjar, Xusainov Islom. Chegaraviy sharti spektral parametrga chiziqli ravishda bog‘liq bo‘lgan Shturm-Liuvill masalasi uchun regularlashtirilgan izlar formulasi.....	10
Туйчиева Сайёра Тахировна. Исследование прямой задачи и симметризация системы уравнений пороупругости.....	14
Солеев Ахмаджон, Азимов Алижон Ахмадович. Степенные преобразования для систем нелинейных алгебраических уравнений.....	17
Ganixodjaev Rasul Nabievich, Eshniyozov Abdumalik Iskandar o‘g‘li, Masharipov Sirojiddin Ismoiljon o‘g‘li. Equivalence and Majorization of Quadratic Stochastic Operators.....	33

FALSAFA

Арзикулов Элбай Азим ўғли. Истеъмол маданияти фалсафий тадқиқот обьекти сифатида.....	39
Хонимов Шарофиддин. Ёшларда ижтимоий-сиёсий фаолликни ошириш ва мафкуравий иммунитетни мустаҳкамлаш омиллари.....	42
Kadirova Dilbar Solihovna. Mehnat estetikasida nafosatning namoyon bo‘lishi.....	45
Shadmonov Aziz Azimovich. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurishda erkinlik g‘oyalarining ahamiyati.....	49
Юлдашев Фахриддин Абдуваситович. Форобий фалсафасида инсон баркамоллиги ва ахлоқий қадриятлар масаласи.....	51
Teshaboyev Muhiddinjon. jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minalash mexanizmlari va prinsipial masalalari.....	54
Boltayev Abdurahim. Ibn Arabiyning borliqqa oid risolalari tasnifi.....	58
Rajabov Alisher Shavkatovich. Mirbobo Naqshbandiy Orif Qalbi va Orif Holining haqiqati to‘g‘risida....	62
Xoliqov Lazizjon Maxmud o‘g‘li. Millatlararo munosabatlarda hamjihatlik muhitini ta’minalash – millatga qarshi qaratilgan tahdididlardan himoyalanish asosi.....	65

TILSHUNOSLIK

Begmatova Ra’no Faxridinovna. Lingvistik kooperatsiya va garmonizatsiyaning nazariy tahlili.....	68
Xodjayorov Malik Berdimurodovich. Medalingvistikaning nazariy asoslari va metodlari.....	70
Babaxanova Dilarom Axmatxanovna. Gap turlari va sintaktik uslubiyat.....	72

ADABIYOTSHUNOSLIK

Abdulkakimova Munira O‘rol qizi. Frans Kafka va Nazar Eshonql hikoyalari qiyosiy tadqiqi.....	77
Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna. “Alpomish” dostoni badiiy strukturasida marosimlarning o‘rni.....	79
Азизхонова Сарвиноз Ёқубжон қизи. Азимий шеърларининг бадиияти ва анъанавийлик.....	82

PEDAGOGIKA

Toштемиров Дониёр Эшбаевич. Ўқув жараёнида SMART технологияларидан фойдаланиш...	87
Xajiyeva Maksuda Sultanovna. Abu Abdulloh Rudakiyning ma’naviy merosida pedagogik qarashlarning namoyon bo‘lishi.....	89
Matchanova Nargiza To‘lqinovna. Ijtimoiy moslashuv shaxsni ijtimoiylashtirish mexanizmi sifatida.....	93
Xudoynazarov Egambergan Madraximovich. Talabalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning didaktik asoslari.....	96
Sharifzoda Sardorbek O‘razboy tabib o‘g‘li. Talabalarda kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ yondashuvdan foydalanishning mazmuni va metodlari.....	100
Madaminov Uktamjon Ataxanovich, Bektemirova Risolat Shukurla qizi. Web dasturlashni mobil ilovalar va web ilovalar yordamida o‘rganishning zamonaviy texnologiyalari.....	104
Ruzmetov Ne‘mat Kalandarovich, Madaminov Azimbek Egamberganovich, Kazakov Amir Xaydarovich. Voleybol to‘garaklarida yonlama harakatlanish tezkorligi va to‘p uzatish aniqligini so‘rovnomaga asosida o‘rganish natijalari.....	108